

06.12.2022 yil № 199705 lotga asosan

OLDI SOTDI SHARTNOMASI

№ 11

9«12»2022 yil.

36-7-105-MNQ/2022-son

Kelajak Ta'minot Karvon MCHJ, keyingi o'rirlarda "Sotuvchi" deb yuritiladi. O'zining nizomi, asosida ish yurituvchi **S.Bahriyev** nomidan, bir tomondan va **Urgut tuman mahalla va nuroniyarlarni qo'llab-quvvatlash bo'llimi**, keyingi o'rirlarda "Sotib oluvchi" deb yuritiladi, O'zining nizomi, asosida ish yurituvchi rahbar **U.Salomov** nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Sotuvchi o'ziga tegishli bo'lgan tovar(mahsulot)ni ushbu spetsifikatsiyaga asosan Sotib oluvchiga o'z vaqtida sifatlari qilib yetkazib berish, Sotib oluvchi esa tovar(mahsulot)ni qabul qilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda to'lash majburiyatini oladi.

| № | Materiallar nomi | O'lchov birligi | Miqdori | Narxi | Summasi |
|---|------------------|-----------------|---------|----------|-----------|
| 1 | Kassa apparati | dona | 100 | 55999000 | 559990000 |
| | Jami | | | | 559990000 |

1.2. Shartnomaning umumiyligi summasi **559 990 000.00** (Besh yuz ellik to'qqiz million to'qqiz yuz to'qson ming) so'mni tashkil qiladi.

2. YETKAZIB BERISH VA HISOB-KITOBLAR SHARTLARI

2.1. "Sotib oluvchi" mazkur shartnomani Urgut tuman bo'yicha G'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingen kundan boshlab 5 bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq, shartnoma umumiyligi summasidan 30% miqdorida (shartnoma summasidan 30% miqdorida) oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni tovarni olgandan so'ng 10 bank ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to'laydi.

2.2. "Sotuvchi" avans mablag'lari Sotuvchining tegishli hisobvarag'iga kelib tushgan vaqtidan boshlab 10 bank ish kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. "Sotuvchi" amaldagi GOST ga muvofiq tovarni yetkazib berishi shart.

2.4. "Sotib oluvchi" tovarlarni qabul qilishda "Sotuvchi" ishtirokida olinayotgan tovarlarning to'liqligini va sifatini shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan tovarlarga muvofiqligini tekshirishi shart.

2.5. Agar mazkur shartnoma bilan boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlar Sotuvchi hisobidan amalga oshiriladi.

2.6. Sotib oluvchining roziligidagi ko'ra tovar muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin.

2.7. Yetkazib berilgan tovar bevosita Sotib oluvchining mas'ul xodimlari tomonidan dalolatnomaga bo'yicha qabul qilinadi va unda yetkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko'rsatiladi.

2.8. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan tovarlarni yetkazib berish, mazkur shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Sotib oluvchining huquqlari:

Sotuvchidan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Sotib oluvchi hisobidan tovarlar tashib keltirilganda, Sotuvchidan transport xarajatlarini qoplab berishni talab qilish, agar mazkur shartnomaning shartlarida boshqa hollar belgilanmagan bo‘lsa;

Sotuvchidan mazkur shartnomaga muvofiq, tegishli sifat, assortment bo‘yicha tovarlarni yetkazib berishni talab qilish;

Sifatsiz tovar yetkazib berilganda o‘z ixtiyoriga ko‘ra quyidagilardan birini talab qilish:

- tegishli sifatdagi shunga o‘xshash tovar bilan almashtirib berish;

- kamchiliklarni beg‘araz bartarf etish;

- Sotuvchidan mazkur shartnomada shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

3.2. Sotib oluvchining majburiyatları:

- mazkur shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan tovarlarni qabul qilish;

- tovarlarning qiymatini mazkur shartnomada belgilangan narxda va muddatda to‘lash.

3.3. Sotuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- “Sotib oluvchidan” oldindan to‘lov va yetkazib berilgan tovarlar uchun yakuniy hisob-kitoblarni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi ko‘zda tutilgan tartibda va hajmlarda amalga oshirishni talab qilish;

- Sotib oluvchidan shartnomaga muvofiq, yetkazib berilgan tovarlarni asossiz ravishda qabul qilmaslik natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berishni talab qilish.

3.4. Sotuvchining majburiyatları:

- Sotib oluvchiga tovarlarni mazkur shartnomaga muvofiq belgilangan muddatda, miqdorda va sifatda yetkazib berish;

- agar tovarlarni yetkazib berish jarayonida Sotuvchi shartnomada shartlari va me’yorlardan yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan chetga chiqishga yo‘l qo‘yan hollarda Sotib oluvchining talabi bo‘yicha 15-kun muddat ichida barcha aniqlangan kamchiliklarni beg‘araz bartaraf etish.

3.5. Mazkur shartnomada belgilangan tartibda mazkur shartnomada shartlari va talablari va O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq ijro etilishi shart.

3.6. Tomonlar o‘z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta’milagan taqdirda shartnomada bajarilgan hisoblanadi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKHLARI

4.1. Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek Sotuvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi Sotuvchiga tanlab olinmagan (o‘z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo‘yicha esa —10 foiz miqdorida jarima to‘laydi.

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, Sotuvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o‘z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to‘lanishini talab qilishga haqlidir.

4.2. To‘lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to‘lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to‘lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun Sotib oluvchi mahsulot Sotuvchiga o‘zi to‘lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

Yetkazib berilgan tovarlar haqini o‘z vaqtida to‘lamaganlik uchun Sotib oluvchi Sotuvchiga o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorida penya to‘laydi.

4.3. Sotuvchi:

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni yetkazib berish muddatlari va joyi bo‘yicha Sotuvchi shartnomada shartlarining Sotib oluvchi nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;

- shartnoma shartlarining boshqa buzilishlari;
- tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.4. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (Sotib oluvchi) tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, Sotuvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'limgan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.

Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'limgan tovarlar yetkazib bergenlik uchun jarima Sotuvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.5. Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, tovar Sotuvchi sotib oluvchiga (Sotib oluvchiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarni kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.6. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib bergenlik uchun Sotuvchi sotib oluvchiga (Sotib oluvchiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natalishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (Sotib oluvchi) jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin Sotuvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi Sotuvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlarni kelishuviga asosan shartnomani 5.1 bandi bajarilmagan taqdirda tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilinib, sud orqali hal qilinadi.

6. FORS-MAJOR

6.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlар mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 15-fevralidagi 63-sonli "Yengib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

7. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

7.1. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korrupsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalarga oid shartlarni va talablarni tadbiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

7.2. "Sotib oluvchi" "Sotuvchiga"ga mazkur shartnoma doirasida qo'yidagilarni kafolatlaydi va quyidagi majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi:

Shartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari), iste'molchi manfaatlari uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, "Sotuvchi"ning korrupsiyaga qarshi amaldagi talablariga va O'zbekistan Respublikasining barcha qonun va qoidalariiga qat'iy rivoja qiladi.

8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

9.1. Mazkur shartnoma Urgut tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-y. 31-dekabrigacha amal qiladi.

9.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

9.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI.

Sotuvechi

OOO KELAJAK TA'MINOT KARVONI

Manzil: Urgut tuman Mirzaqishloq mahalla

INN: 307184043

OKONX:

X/R: 20208000705187494001

Bank: Mikrokreditbank Urgut bo'limi

MFO: 00301



Rahbar

M.O.

S.Bahriyev

(imzo)

Sotib oluvchi

Urgut tuman mahalla va nuroniyarlari qo'llab-quvvatlash bo'limi

Manzil: Urgut shahri Navoiy shoh ko'chasi

INN: 207317725 OKONX: 92400

X/R: 100022860182367011402259001

23402000300100001010

Toshkent sh. Markaziy Bankining Toshkent sh. XKKM

MFO: 00014 INN: 201122919

Rahbar: U.Salomov

M.O'. (imzo)

Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.

Elektron raqamli imzoning haqiqiyigini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.



| | |
|--------------------|-----------------------------|
| Imzolovchi F.I.SH. | UMIDJON SALOMOV SHAROFOVICH |
| Imzolangan sana | 09.12.2022 10:06 |
| Hujjat kodi | PU8360663765 |
| Hulosa kodi | HF8025570743 |

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

HF8025570743

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2.Loyihaning nomi: Urgut tuman mahalla va nuroniyarlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi bilan Kelajak Ta`minot Karvon MCHJ o‘rtasida tuzilgan **559 990 000.00** (Besh yuz ellik to‘qqiz million to‘qqiz yuz to‘qson ming) so‘mlik shartnoma

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: URGUT TUMAN MAHALLA VA NURONIYLAR BO‘LIMI tomonidan 06.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Urgut tuman yuridik
markazi
bosh yuristkonsulti:**



Q.Q.MINGBOYEV

09.12.2022